



Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025-yil yanvar-iyul oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-avgust holatiga ko'ra viloyatda 3 559 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 643 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,1 %) Urganch shahriga, 400 tasi (11,2 %) Urganch tumaniga, 382 tasi (10,7 %) Xonqa tumaniga, 321 tasi (9,0 %) Qo'shko'pir tumaniga va 275 tasi (7,7 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2025- yilning yanvar-iyul oylarida 662 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, shularning 109 tasi Urganch shahriga, 81 tasi Xonqa tumaniga, 68 tasi Xiva tumaniga, 67 tasi Urganch tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-avgust holatiga ko'ra



II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 18 351,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	18 351,1	109,1
Urganch shahri	2 743,2	111,5
Xiva shahri	258,6	104,2
tumanlar:		
Bog'ot tumani	371,5	110,6
Gurlan tumani	274,2	71,8
Qo'shko'pir tumani	503,7	108,3
Urganch tumani	947,4	109,8
Hazorasp tumani	396,6	110,2
Tuproqqal'a tumani	8 703,9	109,1
Xonqa tumani	799,9	106,8
Xiva tumani	373,0	104,1
Shovot tumani	617,7	103,3
Yangiariq tumani	487,8	104,5
Yangibozor tumani	546,4	111,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (132 663,9 ming so'm), Urganch shahrida (17 571,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (9 000,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Urganch shahrida (109,8 %) va Yangibozor tumanida (109,6 %) qayd etilmoqda


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyul oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 17 684,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,4 %) ni tashkil etgani holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 1,8 mlrd so'm (0,01 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 535,4 mlrd so'm (3,0 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 129,4 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-iyul oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 49 441,0 tonna paxta tolasi (2024-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 4,9 % ga kamaygan), 76 910,3 tonna shakar (31,9 % ga kamaygan), 2 090,0 tonna o'simlik yog'i (50,2 % ga kamaygan), 24 776,5 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (24,9 % ga ko'paygan) hamda 51 587 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (5,5 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul*	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	43 497	48 884	51 587
Maxsus yengil avtomobillar, dona	12 310	15 118	28 034
Paxta tolasi, t	45 511,8	53 216,8	49 441,0
Shakar, t	150 057,5	112 888,5	76 910,3
O'simlik yog'i, t	3 663,1	4 200,0	2 090,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	29 017,1	19 832,1	24 776,5
Paxta chigiti, t	77 297,9	79 453,9	81 880,0
Paxtadan yigirilgan ip, t	16 029,4	21 169,3	27 964,1

**2023-2024-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,8 % (2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,9 % (2024-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,08 % ni (2024-yilning yanvar-iyul oylarida 0,08 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 40,8 % (30,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,6 % (5,1 %), quyi texnologiyali 49,8 % (46,8 %) ni tashkil etgan.

Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan





Yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-iyul oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-iyul oylarida 51 587 dona “ Damas ” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga oshdi), 28 034 dona maxsus yengil avtomobillari (85,4 % ga oshdi) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar, donada
yanvar-iyul oylarida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 97,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 140,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul*	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	819,8	731,8	716,5
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	819,8	731,8	716,5
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	68,5	66,9	93,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 28,0 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 35,2 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 58,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul*	2024-yil yanvar-iyul*	2025-yil yanvar-iyul
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	3 299 805,0	13 931 874,0	9 021 126,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv	82 662 855,0	95 942 925,0	122 852 355,0

bilan ta'minlash
bo'yicha
xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni
yig'ish bo'yicha
xizmatlar, ming so'm

11 966 993,0


21 052 241,0

33 434 708,0

**2023-2024-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 158,5 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,4 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyul oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,3 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha



statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

